

Qush uyasida ko'rganini qiladi...mi

**“Qora boshga yovuz yovdir qizil til,
Ne-ne boshni yedi, yana yegay, bil !”
Tohir Malik**

Tilimizda tez-tez takrorlanadigan “Rostlik” va “To'g'rilik” so'zlari bir ma'nolarini anglatadi. Bu so'zlarning teskarisi “Egrilik” va “Yolg'on”dir.

Insonlardagi ajoyib xulqlarning biri rostlikda to'g'rildikdir. To'g'rilik odamlardagi barcha ishlarda tartib va maromida ketishini ta'minlaydi. To'g'rilik izdan chiqdimi, hamma ishlarning tartibi buziladi.

Hayotda odamning uzoq yashashi emas, to'g'ri yashashi muhimdir deyishadi donishmandlar. To'g'ri yashashni bolalarimizga qanday o'rgatmog'imiz lozim? Bunda bizga dono xalqimiz tomonidan yaratilga o'zbek xalq ertaklari eng yaxshi ko'makch bo'ladi deb o'ylaymiz.

O'zbek xalq ertaklari hikmatlapriga yo'g'rilganligi bilan ahamiyatlidir. Farzandlarimizni to'g'ri tarbiyalashda bu ertaklarning o'ni beqiyos.

Bolalarni tarbiya qilishda “Egri va To'g'ri” ertagi muhim ahamiyatga ega. Bu ertak asosida bolalar uchun multfilmlar ham yaratilgan. Ertakdagi har qanday mushkulliklarga najot to'g'rilikda ekani, to'g'ri odamlar baxtga erishib, egri odamlar vaxshiy hayvonlarga yem bo'lishi bolalar ongiga ta'sir qilib, yaxshiliklarga boshlardi, rostgo'ylik shakllanib, rivojlanardi.

Farzandlarimizni O'zbekistonimizning kelajagi deymiz. O'zbekistonimizning kelajagi bo'lmish farzandlarimizni qanday tarbiyalayapmiz? Bunga javob berish osonmikan? Qiyin-a!

Birgina misol: Farzandimiz xarxasha qilayapti, uni tinchitish uchun yolg'on gapiramiz, ya'ni yolg'on va'dalar beramiz. “Senga falon narsa olib beraman. Shunday narsa olib beramanki, bunaqavsi hech qaysi o'rtog'ingda yo'q qabilidagi va'dalarimiz orqali farzandimizda bizga nisbatan ishonch hosil qilamiz. Biz va'da qilgan, o'rtog'ida yo'q zo'r narsani esa farzandlarimiz kutadi. Lekin biz va'dani hamma vaqt ham bajarmaymiz. Farzandimiz nima deb o'ylaydi. Bu bizning farzandlarimizni yolg'onchilik sari qo'ydirgan birinchi qadamimiz bo'lmaydi deb kim kafolat beradi?. Ishonmasangiz ularni chetdan kuzating, guvohi bo'lasiz. O'yin jarayonimda shunday holatlar yuz beradiki guvohi bo'lib hayratdan yoqa ushlaysiz. Biz ularni qanday aldagan bo'lsak, ular ham bizdek bir-birini aldashini guvohi bo'lamiz. To'g'ri, bu zararsiz, arziyas kichkinagina yolg'onchilikdir. Lekin har qanday narsa ham kichkinadan katta bo'lishini unutmashimiz lozim.

To'g'ri, hech qaysi ota yoki ona farzandiga yolg'onchilikni atayin o'rgatmaydi, o'zimiz bilmagan holatda yolg'onlikni o'rgatib qo'yanimizni bilmay qolamiz. Chunki bolalar kuchli taqlidchi bo'ladi. Bizning va'da berib, va'damizning ustidan chiqmasligimizga ular taqlid qiladi.

Ulug' muhandis Imom Buxoriy hazratlari hadislarini ishonchli manbalardan yozib olish uchun vaqti-vaqti bilan uzoq safarlarga ham chiqib turgan ekanlar. Mana shunday safarlardan birida 14-hadisni so'zlab beruvchi kishi oldiga qishloqqa boribdilar.

U kishi to'shovi bo'shagan otini ushlamoqchi bo'lib, xuddi etagida arpa borday ko'rsatib, otini aldab ushlamoqda ekan. Bu holatni guvohi bo'lgan Imom Buxoriy hazratlari “Bu kishi yolg'onchi ekan. Uning aytadigan hadislarining rostligiga kim kafil bo'la oladi”- deb uylariga qaytgan ekanlar.

Farzandlarimizni yolg'onchilikka chorlovchi holatlarga kudalik hayotimizda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, ishxonalarimizda ish yoqmay turgan holatlarda yoki biror tadbirda qatnashish uchun rahbarga “Onam og'rib qolibdilar”, “Otamning mazzalari yo'q, ularni shifokorlarga ko'rsatishim lozim” qabilidagi yolg'onlar bilan ruxsat olamiz. O'zimizning bunday topqirligimiz, uddaburonligimiz haqida oilamiz davrasida maqtanib qo'yamiz. Buni eshitgan farzandlarimiz kelajakda qanday inson bo'lib yetishadi, buni o'ylab ham ko'rmaymiz. Axir, donishmandlar aytishadi-ku, “Qush uyasida ko'rganini qiladi”.

“Iqror bo’ladi” ertagini eshitganmisiz? Bu ertak menga juda yoqadi. Undan nimalarnidir o’rganish mumkin. Eshiting-a!

Qadimda bir oilada qari ota-ona va erkatoiy o’g’il yashar ekan. Ota temirchilik bilan shug’ulananar, ona esa uy yumushlarini bajarar ekan. Erkatoiy o’g’il esa o’yindan ortmas, kun bo’yi ko’chada yurar ekan. Qachon qorni ochsa, charchasa ovqatlanib, dam olish uchungina uyga kelar ekan. Ota bir kuni erkatoiy o’g’lini yoniga chaqirib, nasihat qilibdi. O’zining kuchdan ketayotgani, endi oilani tebrata olmasligini va bundan keyin bu vazifani o’g’il bajarishi lozimlinini uqtiribdi. Shu maqsadda o’g’lini sinab ko’rmoqchi bo’lib, bukungi oziq-ovqat mahsulotlari uchun pul topib kelishini tayinlabdi.

Erkatoiy o’g’il hovliga chiqib, nima qilsam ekan, qayerdan pul topsam ekan deb uylanib qolibdi. Buni ko’rgan onaning bolasiga rahmi kelib, otasidan yashirib olib qo’rgan cho’ntagidagi pulini berib, 3-4 soatlardan keyin kelib, otasiga pulni berishini aytibdi. Erkatoiy o’g’il ham xuddi onasi aytgandek qilibdi. Ota esa og’lining qo’lidan pulni olib yonib turgan olovga tashlabdi. Erkatoiy o’g’il indamay chiqib ketibdi. Ertasi kun ota yana o’g’liga pul topib kelishni buyuribdi. Onaning yana bolasiga rahmi kelib, otasidan yashirib olib qo’rgan cho’ntagidagi pulini berib, endi 5-6 soatlardan keyin kelib, otasiga pulni ishlab topdim deb berishini aytibdi. Erkatoiy o’g’il bu safar ham xuddi onasi aytgandek qilibdi. Ota esa yana og’lining qo’lidan pulni olib yonib turgan olovga tashlabdi. Erkatoiy o’g’il bu safar ham indamay chiqib ketibdi. Ertasi kuni ota yana o’g’liga pul topib kelishni buyuribdi. Endi onaning yashirgan pullari tugagan edi. Ona turmush o’rtog’idan norozi bo’lib, bolasiga achinib, erkatoiyini kuzatibdi.

Kech kirganda erkatoiy o’g’il ust-boshlari chang, qo’llari qizarib ketgan holda, charchab-horib uyga kirib kelibdi va ishlab topgan pulini otasiga beribdi. Ota har safargidek pulni olib olovga tashlabdi. Buni ko’rgan o’g’il ota nima qilganingiz bu deb, qo’li ko’yib qolishini ham o’ylamay olov ichidan pulini olibdi. Shundan so’ng ota ishini o’g’liga topshiribdi.

Ertakni har safar eshitganimda otaning sabr-bardoshiga, bolasini to’g’ri yo’lga boshlash yo’lidagi harakatlariga qoyil qolaman. Ota nafaqat bu tadbirkorligi bilan erkatoiy farzandini, turmush o’rtog’ini ham to’g’ri yo’lga boshlaganiga tasannolar aytgim keladi. Turmush o’rtog’ining xato qilayotganini, erkatoiy o’g’ilni tarbiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatayotganini bilsa ham hech narsa demaydi, xafa qilmaydi, aksincha yumshoqlik bilan uni ham tarbiyalaydi hamda turmush o’rtog’ining o’z xatosini, ya’ni ortiqcha mehribonchilik bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkinligini o’zi tushunib yetishi uchun imkoniyat beradi. Qani endi hamma otalarimiz shunday bo’lishsa, xatoliklarni tinchlik bilan hal etishsa va eng asosiysi bo’lajak oila boshliqlari-farzandlariga har ishda namuna bo’lishsa. Axir bejizga dono xalqimiz “Qush uyasida ko’rganini qiladi” deyishmagandirlar.

Xulosa qilib aytganda, biz ota-onalar farzandlarimizni o’zimiz namuna bo’lgan holda to’g’rilikka o’rgatib, yolg’onlardan saqlashimiz kerak ekan.

G.A.Isoqova
Jizzax viloyat pedagoglarni Qayta tayyorlash va
malakasini Oshirish institut “Maktabgacha,
bshlang’ich va maxsus ta’lim” kafedrasi katta
o’qituvchisi